O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 94(575.1)(092)

E’tibor S. XO‘JAYAROVA,
Tayanch doktorant, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston.
E-mail: etiborkhujayarova@gmail.com, ORCID: 0009-0000-8543-8279

TDIU professori, t.f.d F.Adilov taqrizi asosida

THE ROLE OF KH.S. SULAYMONOVA IN THE HISTORY OF THE JUDICIAL AND LEGAL SYSTEM OF SOVIET UZBEKISTAN (1935–1965)

Annotation

The article examines the role of Khadicha Sulaymonovna Sulaymonova (1913/1916–1965), academician and Chairwoman of the Supreme Court of the Uzbek SSR, in the history of the judicial and legal system of Soviet Uzbekistan. Her early career as a people’s judge and member of the Supreme Court, her participation in the rehabilitation process after the 20th Congress of the CPSU, and her work as Minister of Justice, Chairwoman of the Legal Commission under the Council of Ministers and Chairwoman of the Supreme Court are analysed in connection with the transformations of the republic’s judicial and legal system. The study is based on a comparative examination of official Soviet publications, periodicals, memoirs and post-independence research. Discrepancies between sources and the ideological features of Soviet-era publications are identified.

Key words: Khadicha Sulaymonova, Soviet period, judicial and legal system, Supreme Court of the Uzbek SSR, Ministry of Justice, Legal Commission, rehabilitation, codification, forensic expertise.

РОЛЬ Х.С. СУЛАЙМАНОВОЙ В ИСТОРИИ СУДЕБНО-ПРАВОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА СОВЕТСКОГО ПЕРИОДА (1935–1965)

Аннотация

В статье освещается роль председателя Верховного суда Узбекской ССР, академика Хадичи Сулаймановны Сулаймановой (1913/1916–1965) в истории судебно-правовой системы Узбекистана советского периода. Её ранняя деятельность в качестве народного судьи и члена Верховного суда, участие в процессе реабилитации после XX съезда КПСС, а также работа на постах министра юстиции, председателя Юридической комиссии при Совете Министров и председателя Верховного суда анализируются в связи с преобразованиями судебно-правовой системы республики. Исследование основано на сравнительном изучении официальных изданий советского периода, периодической печати, мемуарной литературы и работ периода независимости. Выявлены расхождения в сведениях источников и идеологические особенности советских публикаций.

Ключевые слова: Хадича Сулайманова, советский период, судебно-правовая система, Верховный суд Узбекской ССР, Министерство юстиции, Юридическая комиссия, реабилитация, кодификация, судебная экспертиза.

SOVET DAVRI O‘ZBEKISTON SUD-HUQUQ TIZIMI TARIXIDA X.S. SULAYMONOVANING O‘RNI (1935–1965)

Annotatsiya

Maqolada sovet davri O‘zbekiston sud-huquq tizimi tarixida O‘zbekiston SSR Oliy sudi raisi, akademik Xadicha Sulaymonovna Sulaymonovaning (1913/1916–1965) o‘rni yoritilgan. Uning xalq sudyasi va Oliy sud a’zosi sifatidagi dastlabki faoliyati, KPSS XX syezdidan keyingi reabilitatsiya jarayonidagi ishtiroki, Adliya vaziri, Ministrlar Soveti huzuridagi Yuridik komissiya raisi va Oliy sud raisi lavozimlaridagi faoliyati respublika sud-huquq tizimidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Tadqiqot sovet davri rasmiy nashrlari, davriy matbuot, xotira adabiyoti va mustaqillik davri tadqiqotlarini qiyosiy o‘rganishga asoslangan. Manbalardagi ma’lumotlarning tafovutlari hamda sovet davri nashrlarining mafkuraviy xususiyatlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Xadicha Sulaymonova, sovet davri, sud-huquq tizimi, O‘zbekiston SSR Oliy sudi, Adliya vazirligi, Yuridik komissiya, reabilitatsiya, kodifikatsiya, sud ekspertizasi.

Kirish. Sovet davrida O‘zbekiston sud-huquq tizimining shakllanishi va rivojlanishi tarixini o‘rganishda bu jarayonda bevosita ishtirok etgan milliy kadrlar faoliyatini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Davlat institutlarining tarixi ko‘p jihatdan ularda faoliyat yuritgan shaxslar taqdiri orqali namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan Xadicha Sulaymonovna Sulaymonovaning hayot yo‘li alohida e’tiborga loyiq. Uning sud-huquq tizimidagi faoliyati xalq sudyasi lavozimidan respublika Oliy sudi raisligigacha bo‘lgan o‘ttiz yillik davrni qamrab oladi.

Bu davr sovet sud tizimi tarixidagi bir-biridan keskin farq qiluvchi bosqichlarga to‘g‘ri keladi: 1930-yillardagi qatag‘onlar, KPSS XX syezdidan keyingi reabilitatsiya jarayoni, 1950-yillar oxiridagi kodifikatsiya islohotlari va N.S.Xrushchev davridagi boshqaruvni qayta tashkil etish. X.S.Sulaymonova ushbu bosqichlarning har birida respublika sud-huquq tizimining muhim lavozimlarida faoliyat yuritgan. Shu sababli uning faoliyati nafaqat shaxs tarixi, balki respublika sud-huquq tizimi tarixining ajralmas qismi sifatida ham o‘rganilishi lozim.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, mustaqillik yillarida X.S.Sulaymonova hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan bir qator nashrlar yuzaga kelgan bo‘lsa-da, ular asosan biografik va xotira xarakteriga ega. Uning sud-huquq tizimidagi faoliyati sovet davri institutsional o‘zgarishlari kontekstida manbalarni qiyosiy tahlil qilish asosida tizimli o‘rganilmagan.

Maqolaning maqsadi sovet davri O‘zbekiston sud-huquq tizimi tarixida X.S. Sulaymonovaning o‘rnini mavjud manbalar asosida xronologik izchillikda yoritish hamda manbalardagi ma’lumotlarni qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilandi:

X.S.Sulaymonova sud-huquq faoliyatining asosiy bosqichlarini aniqlash;

har bir bosqichda uning faoliyatini respublika sud-huquq tizimidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda tahlil qilish;

manbalardagi ma’lumotlarni qiyoslab, ularning ishonchliligi va tafovutlarini aniqlash.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid manbalarni to‘rt guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh sovet davri rasmiy nashrlaridir. Ular orasida X.Sulaymonova asarlar to‘plamidagi biografik ocherk [6] olimaning davlat va sud faoliyatini eng batafsil yoritgan manba hisoblanadi. Y.S.Nasriddinova kitobi [12] sud-huquq tizimidagi ayollar haqidagi statistik ma’lumotlarni beradi, ta’ziyanomalar [8; 9] esa asosiy sanalarni aniqlashga yordam beradi. Ikkinchi guruh S.Ashurova [13] va A.Aleksandrov [14] maqolalari kabi davriy matbuot materiallaridir. Ular zamondosh guvohligi sifatida qimmatli, biroq publitsistik xarakteri tufayli tanqidiy yondashuvni talab qiladi. Uchinchi guruh N.A.Muhitdinov xotiralari [4] bo‘lib, ular reabilitatsiya jarayonidagi ishtirokini yoritadigan noyob manbadir. To‘rtinchi guruh mustaqillik davri nashrlari [1] asosan biografik va xotira xarakteriga ega. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, X.S. Sulaymonovaning sud-huquq tizimidagi faoliyati haqidagi ma’lumotlar tarqoq bo‘lib, ular hali qiyosiy o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga asoslanadi. Tarixiylik tamoyili X.S. Sulaymonova faoliyatini o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy sharoitlari bilan bog‘liq holda o‘rganish imkonini berdi. Xolislik tamoyili esa sovet davri manbalaridagi mafkuraviy baholarni faktik ma’lumotlardan ajratib olishni talab qildi. Tadqiqotda xronologik, tarixiy-biografik va qiyosiy-tarixiy usullar hamda manbashunoslik tahlili qo‘llanildi. Ular olima faoliyatini bosqichma-bosqich yoritish, uni institutsional tarix bilan bog‘lash va turli manbalar ma’lumotlarini solishtirish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Manbalar tahlili X.S.Sulaymonovaning sud-huquq tizimidagi faoliyatini besh bosqichga ajratish imkonini beradi.

1. Sud faoliyatining boshlanishi (1935–1938). X.S. Sulaymonova 1935-yilda yuridik institutni tamomlagan [13] va shu yili 22 yoshida xalq sudyasi etib tayinlangan [1]. 1935-yil oxirida u O‘zbekiston SSR Oliy sudi a’zoligiga saylangan va bu lavozimda uch yil ishlagan. Bu davrda u murakkab jinoyat ishlari yuzasidan Oliy sud raisi E.M. Udris bilan maslahatlashib borgan [2].

1939-yilda u Moskvaga, yuridik institut aspiranturasiga o‘qishga ketgan. Urush boshlanishi bilan Toshkentga qaytib, ilmiy-pedagogik faoliyatini davom ettirgan [13]. Shundan keyin uning faoliyati qariyb o‘n besh yil davomida asosan ilmiy va pedagogik sohada kechgan.

2. Reabilitatsiya jarayonidagi ishtiroki (1956–1957). KPSS XX syezdidan (1956-yil fevral) keyin O‘zbekistonda 1930-yillarda qatag‘on qilinganlarni reabilitatsiya qilish masalasi respublika rahbariyatining kun tartibiga chiqdi. 1956-yilda KPSS MK Prezidiumi huzurida “Katta terror” davrida qatag‘on qilinganlarni reabilitatsiya qilish bo‘yicha komissiya tuzilgan. Uning tarkibiga O‘zbekistondan ikki kishi kiritilgan: O‘zbekiston KP MK birinchi kotibi N.A.Muhitdinov va O‘zSSR adliya vaziri, akademik X.S. Sulaymonova [2].

Komissiya ishidagi muhim masalalardan biri 1938-yilda Moskvada “antisovet o‘ng-trotskiychi blok” ishi bo‘yicha sud qilingan Akmal Ikromov va Fayzulla Xo‘jayevni oqlash edi. N.A.Muhitdinovning xotiralariga ko‘ra, u X.S.Sulaymonova bilan birga ushbu ishlarga oid hujjatlar bilan Moskvaga borgan. SSSR Bosh prokurori R.A.Rudenko huzuridagi muhokamada X.S. Sulaymonova berilgan savollarga hujjatlar asosida javob berib, ayblovlarning asossizligini dalillar bilan ko‘rsatib bergan. Xotiralarda R.A.Rudenko olimaning kasbiy tayyorgarligini yuqori baholagani qayd etilgan [4].

Biroq ikki ishning yakunlanish muddatlari bir xil bo‘lmagan: A.Ikromov 1957-yilda reabilitatsiya qilingan bo‘lsa, F. Xo‘jayev faqat 1965-yilda oqlangan [4]. Mustaqillik davri nashrida o‘sha davrda “xalq dushmani” sifatida otib tashlangan yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etilgan 40 mingga yaqin kishi reabilitatsiya qilingani va bu jarayonda X.S. Sulaymonova jinoyat ishlari materiallarini huquqiy tahlil qilishda faol ishtirok etgani qayd etilgan [5].

3. Adliya vaziri (1956–1959). 1956-yil sentabrda X.S.Sulaymonova O‘zSSR adliya vaziri etib tayinlangan, o‘sha yilning oktabrida esa O‘zSSR Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi etib saylangan [6]. Shu tariqa 1956-yil uning faoliyatida burilish yili bo‘lgan.

Vazirlikka rahbarlik qilgan davrda u vazirlik hay’ati faoliyatini faollashtirgan. Hay’at majlislarida sud amaliyotida eng ko‘p qiyinchilik tug‘dirgan ish toifalari, ya’ni mulkni talon-toroj qilish, transportdagi avariyalar, bezorilik, aliment undirish bo‘yicha moddiy va protsessual huquq normalarini qo‘llash masalalari muhokama qilingan. Natijada odatiy sud xatolarini bartaraf etish hamda jinoyatlar sodir etilishiga imkon beruvchi sabab va sharoitlarni aniqlashga qaratilgan qarorlar qabul qilingan [6]. Muhokama qilingan ish toifalari 1950-yillar oxiridagi sovet jinoyat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi.

Vazir xalq sudlari faoliyatiga alohida e’tibor qaratgan. U tuman va viloyatlarga borib, sudlarga ishni tashkil etish, sudyalar malakasini oshirish va xatolarni tuzatishda amaliy yordam ko‘rsatgan. Uning tashabbusi bilan sud ishini tashkil etish, sud organlari, notariat va advokaturada taftish o‘tkazish metodikasi bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar va buyruqlar chiqarilgan [6].

Vazirlik O‘zSSR Oliy Soveti Prezidiumiga Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Fuqarolik, Fuqarolik-protsessual, Mehnat, Yer-suv hamda Nikoh va oila kodekslariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar kiritgan. Manbada bu takliflarning aksariyati yangi kodekslar ishlab chiqilishini kutmasdan qabul qilingani ta’kidlanadi [6].

Adliya vaziri sifatida X.S.Sulaymonova sud ekspertizasi tizimini kengaytirish tashabbusi bilan chiqqan. O‘sha davrda vazirlik huzuridagi Toshkent ilmiy-tadqiqot kriminalistika laboratoriyasi sud-tergov organlarining ehtiyojlarini qondira olmagan. Vazirlik tashabbusi bilan respublika hukumati 1958-yil 24-yanvarda Toshkent sud ekspertizasi ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilgan [7].

Kadrlar siyosatida u adliya organlariga ayollarni, ayniqsa mahalliy millat vakillarini jalb etish va ularni rahbarlik lavozimlariga ko‘tarishga e’tibor qaratgan. Shuningdek, boshqa ittifoqdosh respublikalar, birinchi navbatda RSFSR adliya organlari tajribasini o‘rgangan [6].

4. Yuridik komissiya raisi (1959–1964). 1959-yil mart oyining oxirida O‘zSSR Adliya vazirligi tugatilgan. Sud boshqaruvi va notariatga rahbarlik qilish vazifalari O‘zSSR Oliy sudiga, kodifikatsiya ishlari va vazirlikning boshqa vazifalari esa yangi tashkil etilgan O‘zSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Yuridik komissiyaga o‘tkazilgan. Sud ekspertizasi instituti ham shu komissiya tasarrufiga berilgan [6, B. 14]. Adliya vazirliklarining tugatilishi Xrushchev davridagi boshqaruvni qayta tashkil etish siyosatining bir qismi bo‘lib, ular 1970-yilda qayta tiklangan. X.S. Sulaymonova Yuridik komissiya raisi etib tayinlangan va bu lavozimda 1964-yil iyungacha ishlagan [8].

Yuridik komissiya faoliyati Ittifoq miqyosidagi huquqiy islohot bilan bevosita bog‘liq edi. 1958-yil dekabrda SSSR Oliy Soveti jinoyat qonunchiligi, sud tuzilishi va jinoyat sudlovi asoslarini qabul qilgan. Ular asosida ittifoqdosh respublikalarda, jumladan O‘zbekiston SSRda sud tuzilishi to‘g‘risidagi qonun, jinoyat va jinoyat-protsessual kodekslari loyihalarini ishlab chiqish jadallashgan [6].

Bu davrda X.S. Sulaymonova ishtirokida tayyorlangan normativ hujjatlar orasida “O‘zbekiston SSR advokaturasi to‘g‘risidagi Nizom” alohida o‘rin tutadi. U Nizom loyihasi bo‘yicha respublika Oliy Soveti sessiyasida ma’ruza qilgan. Nizom 1961-yil 30-mayda tasdiqlanib, jinoyat protsessida advokat vakolatlarini kengaytirgan [7].

Komissiya raisi sifatida u sud ekspertizasi institutini mutaxassislar bilan to‘ldirish va moddiy bazasini mustahkamlashda ishtirok etgan. Institut uchun yangi bino qurilib, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan. 1959–1963-yillarda uning tahriri ostida institutning to‘rtta ilmiy to‘plami nashr etilgan [6].

X.S. Sulaymonova vakillik organlarida ham faoliyat yuritgan. 1948-yilda u Toshkent shahar Moskva tuman Sovetiga, 1955- va 1957-yillarda Toshkent shahar Sovetiga deputat etib saylangan. 1959-yil martda esa Samarqand shahridagi 239-Siyob saylov okrugidan O‘zSSR Oliy Sovetining beshinchi chaqiriq deputati bo‘lgan [6].

5. Oliy sud raisi (1964–1965). X.S.Sulaymonova 1964-yil 27-iyunda O‘zSSR Oliy sudi raisi etib tayinlangan [9]. Bu sana boshqa manbalar bilan ham tasdiqlanadi. 1964-yilda nashr etilgan Y.S. Nasriddinova kitobida u Oliy sud raisi lavozimiga ko‘tarilgan shaxs sifatida tilga olinadi [12]. 1965-yil yanvarida e’lon qilingan ocherkda esa uning bu lavozimda ishlayotganiga “hali bir yil to‘lganicha yo‘q” ekani qayd etilgan [13]. Nasriddinova kitobida 1964-yilda Yuridik komissiyaga yuridik fanlar nomzodi M.Vosiqova rahbarlik qilayotgani ham ko‘rsatilgan [12], bu esa X.S.Sulaymonovaning komissiyadan Oliy sudga o‘tganini tasdiqlaydi.

Oliy sud raisi sifatida u SSSR va boshqa ittifoqdosh respublikalar oliy sudlarining tuzilishini o‘rganib, respublika Oliy sudining yangi tuzilmasini O‘zSSR Oliy Soveti Prezidiumi tasdig‘iga kiritgan. Unda qonunchilikni kodifikatsiya qilish va tizimlashtirish, sud amaliyoti va statistikasini umumlashtirish, shikoyatlar va notariat bo‘limlari tashkil etilishi nazarda tutilgan. Natijada normativ hujjatlarni tizimlashtirish ishi yaxshilangan, sud statistikasi esa muayyan ish toifalari bo‘yicha aniq sotsiologik tadqiqotlar ma’lumotlari bilan to‘ldirilgan [6].

U quyi sudlar ustidan nazoratni kuchaytirishga qaratilgan choralarni ham amalga oshirgan. Oliy sud a’zolarining quyi sudlar ustidan hududiy (zonal) kuratorlik qilish amaliyoti joriy etilgan, sudlarning hududiy taqsimotini hisobga olgan holda sud hay’atlarining doimiy tarkiblari tuzilgan [6].

Fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash tizimi ham qayta tashkil etilgan. Yangi tashkil etilgan shikoyatlar bo‘limida sud a’zolari tomonidan fuqarolarni har kuni qabul qilish tartibi joriy etilgan. X.S.Sulaymonovaning o‘zi qabul kunlari barcha murojaatchilarni qabul qilishga intilgan va qabul ko‘pincha kechgacha davom etgan. Keyinchalik bu tartib Oliy sudning boshqa a’zolari uchun ham majburiy amaliyotga aylangan [6].

Zamondoshlar materiallarida uning qabuliga oid aniq holatlar saqlanib qolgan. A. Aleksandrov maqolasida keltirilishicha, sudlangan o‘g‘lining oilasi boquvchisiz qolgani haqida murojaat qilgan keksa otaning arizasi bo‘yicha rais hukmni o‘zgartirish to‘g‘risida protest keltirgan. Oliy sudning jinoyat ishlari bo‘yicha hay’ati protestni qanoatlantirib, mahkumga shartli jazo tayinlagan va uni ozod qilgan [14]. S.Ashurovaning ocherkida esa talon-toroj uchun sudlangan erini himoya qilib, bolalari bilan qabulga kirib kelgan ayolga rais arizani “qonunga binoan” ko‘rib chiqishini aytgani tasvirlanadi [13]. Bu ikki holat olimaning huquqni qo‘llashda insonparvarlik mulohazalari bilan qonuniylik talablarini uyg‘unlashtirishga intilganini ko‘rsatadi.

X.S.Sulaymonova Oliy sudga rahbarlik qila boshlagan davrda respublika sud-huquq tizimida xotin-qizlarning ishtiroki sezilarli darajaga yetgan edi. 1964-yilda nashr etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, sud tizimida 182 nafar ayol xizmat qilgan: ulardan 5 nafari Oliy sud a’zosi, 19 nafari viloyat sudi raisi va rais o‘rinbosari, 32 nafari tuman va shahar xalq sudyasi bo‘lgan. Xalq maslahatchilari tarkibiga 5700 nafar ayol saylangan, bu barcha maslahatchilarning 41 foizini tashkil etgan. Prokuratura organlarining mas’ul lavozimlarida 72 nafar ayol ishlagan [12].

Xulosa va takliflar. X.S.Sulaymonovaning 1935–1965-yillardagi faoliyati respublika sud-huquq tizimi tarixining bir necha muhim bosqichiga to‘g‘ri keladi. U 1956-yildan keyin qatag‘on qurbonlarini reabilitatsiya qilish jarayonida ishtirok etgan. Adliya vaziri sifatida sud amaliyotini takomillashtirish va Toshkent sud ekspertizasi ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etishga rahbarlik qilgan. Yuridik komissiya raisi sifatida kodifikatsiya ishlarida va advokatura to‘g‘risidagi Nizomni tayyorlashda qatnashgan. Oliy sud raisi sifatida esa sud tuzilmasini qayta tashkil etib, fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirgan. Manbalarni qiyosiy tahlil qilish sovet davri nashrlaridagi faktik ma’lumotlardan ularning mafkuraviy yo‘nalishini hisobga olgan holda foydalanish zarurligini ko‘rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Tulaganova G.Z., Ne’matova Ch.N. Adolatga yo‘g‘rilgan umr. Risola. – T.: Dimal, 2025.
2. Talipova Z.N., Talipova M.S. O‘zbekning olima ayoli Xadicha Sulaymonova (110 yilligiga bag‘ishlangan yorqin yodnoma). – Toshkent, 2023.
3. Удрис Эрнст Мартинович // ЦентрАзия. – URL: https://centrasia.org/person.php?st=1352220599
4. Мухитдинов Н.А. Река времени. От Сталина до Горбачёва: воспоминания. – Москва, 1995.
5. Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши. Уч машҳур ўзбек аёли. – Т.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2022.
6. Сулайманова Х.С. Собрание сочинений. Т. 1. – Ташкент: Фан, 1967.
7. Ҳакимов М., Аҳмедов Ф., Саидов А. Хадича Сулаймонова – ҳуқуқшунос, олима, давлат арбоби. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993.
8. Хадича Сулайманова [некролог] // Известия. – 1965. – 30 нояб. (№ 282).
9. Сулайманова Хадича Сулаймановна [некролог] // Бюллетень Верховного Суда СССР. – 1966. – № 1. – С. 40.
10. Ўзбекистоннинг маърифатпарвар аёллари. I жилд. – Тошкент: Fan, 2021.
11. Гордость Узбекистана // Известия. – 1964. – 5 апр.
12. Насриддинова Ё. Ўзбекистон хотин-қизлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1964. – 188 б.
13. Ашурова С. Ҳаёт лавҳалари // Ўзбекистон хотин-қизлари. – 1965. – №1. – Б. 16–18.
14. Александров А. Председатель Верховного суда республики // Социалистическая законность. – 1965. – № 3.